

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INFORMATIKA  
DARSLARIDA AXBOROTNI TUZILMALASHTIRISH  
MAHORATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

*Tojiyev Husniddin Baxtiyorovich*

*Termiz Iqtisodiyoy va servis universiteti o‘qituvchisi*

*Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li*

*Termiz Iqtisodiyoy va servis universiteti o‘qituvchisi*

*Badalov Kamoliddin Rahmat o‘g‘li*

*Termiz Iqtisodiyoy va servis universiteti o‘qituvchisi*

*E-mail: [husniddin.tojiyev@bk.ru](mailto:husniddin.tojiyev@bk.ru)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining informatika darslarida axborotni tuzilmalashtirish mahoratlarini shakllantirish usullari haqida fikr mulohazalar olib borilgan.

**Kalit so`zlar:** Axborot, informatika haftaligi, axborot madaniyati, boshlang‘ich sinf, asosiy obyekt, tayanch so‘z birikmalari, ikkinchi darajali obyekt, axborotli maqola, havola, mundarija, giperhavola, asosiy mavzular ro‘yxati, gipermatn, gipermedia.

Axborotni tuzilmalashtirishga M. A. Plaksin muallifligidagi darslik asosida o‘rgatishni tavsiya qilamiz. Bu darslik gipermatn, internetni tashkil etish, gipermediaga oid ko‘plab muhim masalalarni o‘z ichiga olgan kamsonli darsliklardan biridir. Endi esa mazkur darslikdagi tegishli mavzularni o‘rganish orqali axborotni tuzilmalashtirish mahorati shakllantirishga qanday erishish mumkinligini ko‘rib chiqamiz [1]. Shuni ta’kidlash kerakki, didaktik materialga qo‘yiladigan mufassallik va yetarlik bo‘yicha talablar axborotni tuzilmalashtirish mahoratini shakllantirishga qaratilgan ta’limning dastlabki davrlaridan boshlab muhimlik kasb etadi [2]. O‘qitishning uchinchi davriga borib o‘quvchilar hajm jihatdan bir qadar kattaroq bo‘lgan axborotlar ustida ham ishlay boshlaydilar, negaki, biz tavsiya etgan darslikdagi paragraflar xuddi shunday harakat qilishni nazarda tutadi. O‘qituvchi bolalarga bu paragraflarni nazariy jihatdan to‘liq o‘zlashtirishni, ya’ni o‘qib chiqishni tavsiya etadi. Mazkur vazifaning mukammal darajada bajarilishi uchun esa “Informatika haftaligi” deb nomlangan kvazivaziyat bayonini taklif etadi [3].

O‘quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish, axborot tushunchasi va uning mohiyati haqida lug‘atlar “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, statistik to‘plamlar, davriy matbuot materiallari, shuningdek, Sh.Bo‘riyeva, E.B. Оспенникова, A.A. Оспенникове каби olimlarning tadqiqotlari muhim manba vazifasini o‘tab, ulardagi ko‘pgina ma’lumotlar ilmiy tadqiqot doirasiga kiritildi.

Maqola umum qabul qilingan metodlar - qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborotlarni tizimli tarkiblashtirish ko‘nimalarini shakllantirishda didaktik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan [4].

Ishlab chiqilgan axborotni tizimlashtirish modelining muvaffaqiyatlari joriy etilishi uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dastlabki sinflardan “asosiy obyekt”, “tayanch so‘z birikmalari”, “ikkinchi darajali obyekt”, “axborotli maqola”, “havola”, “mundarija”, “giperhavola”, “asosiy mavzular ro‘yxati”, “gipermatn”, “gipermedia” kabi tushunchalarning mohiyati haqida tushuntiruvlar berib borish lozim bo‘ladi. Bu vazifani bajarib borish zarurat sifatida tavsiya etilishiga sabab shuki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mazkur tushunchalar haqida ma’lum darajadagi tasavvurga ega bo‘lsalar, ularning axborotni tuzilmalashtirish jarayonida qiyinchiliklari kamroq bo‘ladi [5-8].

Biroq o‘quv-metodik majmualar, o‘qituvchilarning rejulashtirgan didaktik materiallari, darsdan tashqari faoliyati dasturlarining tahlili davomida axborotni tuzilmalashtirishga oid aksar tushunchalar boshlang‘ich sinflarda o‘rganilmasligini ko‘rsatdi. Bulardan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborotni tuzilmalashtirish mahoratlarini shakllantirish uchun ishlarning bajarilish gipermatnli va gipermediali jadvallari, sxemalarini o‘z ichiga olgan algoritmi ham muhim ahamiyatga ega. Qayd etish lozimki, yuqorida sanab o‘tilgan tushunchalar va ular ustida ishslash usullari mavjud o‘quv dasturlaridagi u yoki bu mavzuni o‘rganishni nazarda tutgan o‘quv materiallari mundarijasidan joy ola borishiga erishish lozim. Pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish doirasida asos sifatida “Istiqlolli boshlang‘ich sinf” o‘quv-metodik majmuasi olindi [9-13].

Axborotni tuzilmalashtirish mahoratini shakllantirish vazifasini bajarishga kirishar ekan, o‘qituvchi eng avvalo, markazlashtirish harakatlarining mukammal darajada sodir etilishisha erishishi lozim. Markazlashtirish harakatining mohiyati asosiy obyektlarni (tayanch so‘z biriklarini) ajratib olishdan iborat bo‘lib, guruhlashtirish va qaytar tashkil etish harakatlarining asosi bo‘lib xizmat qiladi [14].

O‘quvchilar topshiriqni (vazifani) bajarish natijasida axborotni alohida ajratib olishlari talab etiladi.

Navbatdagi topshiriq ro‘yxat tushunchasi haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash hamda axborot tashuvchi vositalarning ro‘yxatini o‘rganishga qaratiladi [15]. Aytish kerakki, an’anaviy metodikalarda ro‘yxat tushunchasi, ro‘yxat sarlavhasi, bir darajali va ko‘p darajali ro‘yxatlar tushunchasi yetarlicha o‘rganilgan, biz keltirgan topshiriq esa boshqa qo‘srimcha maqsadlarni, ya’ni shovqinli sharoitlarda axborotni tuzilmalashtirish mahoratini shakllantirishni ham nazarda tutadi [16]. Shu o‘rinda “shovqili sharoit” tushunchasiga qisqacha izoh berib o‘tamiz: ya’ni “shovqin” deganda axborotli shovqin, mavzuga oid axborotlar majmuasi orasida asoslanmagan elementlar mavjudligi tushuniladi [17].

Topshiriq (vazifa)ni bajarish natijasida o‘quvchilar quyidagi ko‘rinishdagi ro‘yxat tuzishlari lozim bo‘ladi:

Axborot tashish vositalari: kitob, gazeta, jurnal, kalendar, devoriy nashrlar.

Aynan shu ko‘rinishdagi ro‘yxat o‘quvchilarga Buratinoning javoblari sifatida taqdim etiladi.

Navbatdagi topshiriqni bajarish oldidan o‘quvchilarga bundan keyingi sun’iy yaratilgan vaziyat (kvazivaziyat) matn holida o‘qib eshittiriladi hamda Buratinoga eng so‘nggi qoralama yuborilmaganligiga e’tibor qaratiladi [18-21].

Ta’kidlashimiz lozimki, topshiriqlarda tuzilmalashtirilishi lozim bo‘lgan axborotlar hajman oshgani sari matn ham kattalashib boradi. Shu bois ham navbatdagi topshiriqda o‘qib beriladigan matn hajmi nisbatan kattaroq bo‘lib, o‘quvchilar uni oldindi topshiriqlardagi singari qismlarga bo‘lib o‘rganishlari nazarda tutilganlini uchun, bu matn bilan tanishish ham ko‘p vaqt olmaydi [22-25]. Bu topshiriq maqsadi havolalar va izohlarga oid tushunchalarning propedevtikasini amalga oshirishdan iborat etib belgilanadi. Topshiriq bajarilganidan so‘ng har bir guruh o‘z bajargan ishlarini taqdim etishi va qanday natijalarga erishganini namoyish etish orqali yakun yasaladi [26-28].

**Xulosa.** Ta’lim sohasi har bir millatning kuch-qudratini ko‘rsatuvchi ko‘zgudir. Ta’lim va tarbiya bir-biridan ajralmas tushuncha bo‘lib, ular bizning o‘zbek millatida doim yonma-yon holatda qo‘llaniladi. Ta’limda yuksak insoniy marralarni zabit etishda tarbiyaning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Shu sababli muhtaram yurtboshimiz ham ta’limga bo‘lgan e’tiborni davlat siyosati darajasida kuchaytirib bormoqdalar. Jumladan, Mustaqilligimizning 31 yilligiga bag‘ishlangan tantanali nutqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Birinchidan, ta’lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz. Buning uchun maktablarning o‘quv dasturlari, o‘qitish uslubi, darsliklar mazmuni tubdan qayta ko‘rib chiqiladi.

Ushbu tizim avval ilg‘or xorijiy mutaxassislar tomonidan ekspertizadan o‘tkazilib, keyingina hayotga tatbiq etiladi. Natijada Yangi O‘zbekiston maktab bitiruvchisi zamonaviy ko‘nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarini puxta o‘zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo‘lib yetishadi. Buning uchun barcha hududlarimizda, ayniqsa qishloq joylarda maktablar qurish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash masalalariga alohida e’tibor beramiz” – deb ta’kidlaganlari fikrimizning yaqqol dalilidir.

## ADABIYOTLAR

1. Tojiyev, H. (2023). FORMING THE ABILITY TO STRUCTURE INFORMATION TECHNOLOGY. *Conferencea*, 105-113.

2. Baxtiyorovich, H. T. (2022). OO ‘QUVCHILARDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY USULLARI VA TAMOYILLARI. *Conferencea*, 139-147.
3. Baxtiyorovich, T. H. (2021). Ways to Organize Extracurricular Activities in Mathematics and Teaching Methodology. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(10), 7-9.
4. Зокиров, Д. (2022). Ona tili va o ‘qish sav odxonligi darslarida matn ustida ishlash yo ‘llari. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(2), 288-291.
5. Zokirov Javohir G‘aybullo O‘g‘li (2023). ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KLASTER METODLARIDAN FOYDALANISH. Science and innovation, 2 (Special Issue 4), 76-79. doi: 10.5281/zenodo.7926259
6. Baxtiyorovich, T. H. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA AXBOROTLARNI TIZIMLI TARKIBLASHTIRISH KO ‘NIMALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 153-159.
7. Javohir G‘aybullo O‘g‘li Zokirov (2023). ZAMONAVIY ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINING YANGILANISHI, MAZMUNI VA AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 5 (NUU conference 3), 90-96.
8. Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li, 1-3-Sinf O‘Quvchilariga Ona Tili Va O‘Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari , Journal of Innovation, Creativity and Art: Vol. 2 No. 2 (2023): Journal of Innovation, Creativity and Art
9. Javohir G‘aybullo o‘g, Z. (2023). 1-3-Sinf O ‘Quvchilariga Ona Tili Va O ‘Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 161-163.
10. O‘G‘Li, Z. J. G., & Aliyarovich, T. E. (2022). BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN METODLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 131-142.
11. Zokirov, J., & Matluba, T. (2022). ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O ‘RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(4), 218-223.
12. O‘g‘li, Z. J. G. (2022). O‘QUVCHILARNING DUNYOQARASHI, BILIMINI OSHIRISHDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINING AHAMIYATI. PEDAGOGS jurnali, 10(3), 124-129.
13. Muqimovich, Y. S. Use of Interactive Methods in Teaching Historical Topics in Primary School Reading Lessons. *JournalNX*, 326-329.
14. Rahmat ogli, B. K. (2023). Bo ‘lajak boshlang ‘ich sinf o ‘qituvchisining didaktik-metodik kompetentligi xususiyatlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 160-165.
15. Kamoliddin, B., & Kholiqovna, K. N. (2023). A CONCEPTUAL APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF THE DIDACTIC-METHODICAL COMPETENCE

- OF THE FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHER. World Bulletin of Social Sciences, 21, 160-164.
16. Badalov, K. (2023). DEVELOPING THE CREATIVITY OF A PRIMARY CLASS TEACHER. Open Access Repository, 4(02), 141-148.
17. Kamoliddin, B. (2023, January). BOSHLANGICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI ORGANISH MANTIQIY KONIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. In E Conference Zone (pp. 35-39).
18. Yakubov, S., & Zokirov, Z. (2021). ЛЮБОВЬ К РОДИТЕЛЯМ И ПОЧИТАНИЕ ИХ-ОСНОВНОЕ ЗВЕНО ВОСПИТАНИЯ. Theoretical & Applied Science, (4), 439-442.
19. Zokirov, J. (2022). THE IMPORTANCE OF STRENGTHENING LESSONS IN STUDENTS'MOTHER TONGUE AND READING LITERACY. Academic research in modern science, 1(9), 344-348.
20. Sayfiddinovich, X. R., & Javohir Gaybullo og, Z. (2021). Boshlanganchi Sinf O'quvchilarida Ekologik Tafakkurni Shakllantirishning Etnopedagogik Asoslari. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI, 1(6), 62-71.
21. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Temirova, M. K. Q. (2021). Ethnopedagogical Fundamentals of Developing Interest in Natural Aesthetics in Primary School Students. Scientific progress, 2(7), 832-839.
22. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Xurramov, M. S. (2021). Use Of The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ethnopedagogical, Ethnographic Views Of Primary School Students. Scientific progress, 2(7), 846-853.
23. Xurramov, R. S., Zokirov, J. G. O., & Xurramov, M. S. (2021). Use Of The Heritage Of Central Asian Thinkers In The Formation Of Ethnopedagogical, Ethnographic Views Of Primary School Students. Scientific progress, 2(7), 846-853.
24. Sayfiddinovich, K. R. (2021). The Role of using Interactive Methods in Primary School Lessons. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMUY JURNALI, 1(6), 114-123.
25. Zokirov, J. G. O., & Xurramov, R. S. (2021). Formation Of Ethnopedagogical Views Among Students Through The Study Of The Life And Work Of Alisher Navoi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 339-343.
26. Yoqubov, S., & Zokirov, J. (2017). OQUVCHILARNI SAVOL BERISHGA ORGATISH USULLARI. In НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 110-112).
27. Badalov, K., & Xolmurodova, N. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARINI DIDAKTIK-METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. Conferencea, 63-66.
28. BADALOV, K. (2022, April). TOOLS FOR HELPING TO DEVELOP THE LOGICAL SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE TEACHING OF GEOMETRIC MATERIALS. In E Conference Zone (pp. 214-217).